

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHATLAR ZAMON TALABI

¹Jalolova Yulduz Muhiddin qizi,

²Amrullayeva Havasgul Amrulla qizi,

³Oxunova Sohiba G'ofur qizi,

⁴Ernazarov Sanjar Nurali o'g'li

¹Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti tyutori,

²Jizzax shahar 16-maktab o'qituvchisi,

³Sh.Rashidov tumani 12-maktab o'qituvchisi,

⁴Pedagogika va psixologiya fakulteti

Surdopedagogika yo'nalishi II-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7294386>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Konstitutsiyaviy islohatlar zamon talabi va inson huquq erkinliklarini konstitutsiyalashtirishning asosiy tendentsiyalari, ushbu sohada davlat institutlari va jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini tatibga solishning konstitutsiyaviy mexanizmlari to'g'risidagi adabiyotlar tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: inson huquq, erkinlik, konstitutsiyalashtirish, milliy standartlar, umumjahon deklaratsiyasi.

Ma'lumki, shu kunlarda mamlakatimizda, xalqimiz hayotida muhim siyosiy voqelik — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zamon talablaridan, fuqarolarimiz xohish va istaklaridan kelib chiqib, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali uni yanada takomillashtirishga qaratilgan demokratik islohotlar yuz bermoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Konstitutsiyaviy komissiya o'z faoliyatini "Jamiyat — islohotlar tashabbuskori" degan g'oya asosida ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan holda olib borib, keng jamoatchilik vakillari hamda xalqning taklif va fikrlari asosida shakllantirayotgani e'tiborga molik.

Konstitutsiyaviy komissiya matbuot xizmati habariga ko'ra, 2022-yil 11-iyun holatiga jami 20148 ta taklif kelib tushgani, albatta mamlakatimizda keng jamoatchilik ahlining, aholining faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etayotganini ko'rsatadi.

Albatta, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish bo'yicha takliflar qatorida oliy ta'lim tizimiga oid masalalar ham o'z aksini topmoqda. Xususan, bu borada ilgari surilayotgan takliflardan biri — "Konstitutsiyada oliy ta'lim muassasalarining o'zini o'zi boshqarish huquqini kafolatlash zarur"ligi masalasidir. Bosh qonunda oliy ta'lim

tashkilotlarining akademik erkinlik huquqini belgilab qo'yish, maqsadga muvofiq, deb hisoblanmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining tadqiqotlar o'tkazish erkinligi huquqini ham konstitutsiyada qayd etib qo'yish taklifi ilgari surilmoqda.

Bunday huquqiy kafolat nima beradi? Bu birinchi navbatda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida, barcha oliy ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat uchun teng imkoniyat va zamin yaratsa, ikkinchidan, zamon talablari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni mustahkamlaydi.

O'zbekistonda davlat organlari faoliyatida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonuniylikka erishish va qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan izchil ishlar maqsadga muvofiqdir. Haqiqatan ham, Bosh Qomusimiz xalqimiz manfaatlariga, davlatimizning strategik maqsadlariga to'la javob beradigan, har tomonlama puxta ishlangan muhim siyosiy hujjatdir. Ayni paytda biz asosiy qonunimiz talablarini to'liq amalga oshirish borasida hali oldimizda ulkan vazifalar turganini yaxshi tushunamiz. Ya'ni, xalqimiz hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, inson huquq va manfaatlarini amalda ta'minlash bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak.

Shu maqsadda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjat mohiyatiga ko'ra jamiyat hayotining barcha sohalaridagi tizimli islohotlarning "yo'l xaritasi"ga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklariga rioya qilishning ishonchli kafili ekanligi aytilgan. Konstitutsiyada O'zbekistonning demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqligi, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish ustuvor vazifa sifatida belgilab olingani mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklari sohasida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalariga, birinchi navbatda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga to'la muvofiqligi qayd etilgan. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mavjud inson huquq va erkinliklarining barchasi, ya'ni insonning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar va asosiy erkinliklari mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalqaro ahamiyati unda demokratik jamiyatning oliy qadriyatlari – inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari mustahkamlanganligida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston Konstitutsiyasida bevosita va milliy qonunchilikka

implementatsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladigan halqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari ustuvorligi e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning demokratik tamoyillarini belgilab bergan. Bosh Qomusimizda fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari to'liq kafolatlangandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat sayti: www.gov.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari: www.press-service.uz/rus/knigi/
3. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik/ H.T. Odilqoriyev tahriri ostida. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sayti: www.parliament.gov.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoring instituti sayti: www.imal.uz